TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.10/2026.08.05.Yu.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

ABDULLAYEV FAYZULLA ABDIKODIR O‘G‘LI

TRANSPORT VOSITALARI HARAKATINI CHEKLASHNING MA’MURIY-HUQUQIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 342.92 (043.3) (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филасофии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Abdullayev Fayzulla Abdikodir o‘g‘li
Transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish …….. 3

Абдуллаев Файзулла Абдикодир угли
Совершенствование административно-правовых аспектов ограничения движения транспортных средств 23

Abdullayev Fayzulla Abdikodir o‘g‘li
Improvement of administrative and legal aspects of restricting the movement of vehicles..... 45

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..... 50

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.10/2026.08.05.Yu.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

ABDULLAYEV FAYZULLA ABDIKODIR O‘G‘LI

TRANSPORT VOSITALARI HARAKATINI CHEKLASHNING MA’MURIY-HUQUQIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Yu1021. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ziyodullayev Muzafar Ziyodullayevich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Asadov Shavkat Gaybullaevich** yuridik fanlar doktori, professor
	Xakimov G‘ulomjon Turg‘unpo‘latovich yuridik fanlar nomzodi,dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport Universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.10/2026.08.05.Yu.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 28-noyabr kuni soat 09:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 77GJ+VRV, Tashkent, Toshkent sh., Mirobod tumani, Adilxo’jayeva-1. Tel./faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport Universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 77GJ+VRV, Tashkent, Toshkent sh., Adilxodjayeva ko‘chasi, 1. Tel.: (+99871) 299-00-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____”-“_____”dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

Dj.X. Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

I.T. Turg‘unov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

M.M. Inagamova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan shiddatli urbanizatsiya va avtomobillashuv jarayonlari sharoitida yo‘llarda transport vositalari oqimining keskin ortib borishi yo‘l harakati xavfsizligi, jamoat tartibi hamda ekologik barqarorlikka o‘zining jiddiy ta’sirini ko‘rsatadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, har yili yo‘l-transport hodisalari oqibatida halok bo‘lib, 20 milliondan 50 milliongacha aholi turli darajada tan jarohatlari olishi qayd etilgan[1]. Shu bilan birga, INRIX kabi xalqaro tahliliy tashkilotlarning qayd etishicha, global miqyosdagi yirik shaharlarda aholi har oyda o‘rtacha 100 soatdan ortiq vaqtini tirbandliklarda yo‘qotmoqda[2]. Mazkur muammolar shaharlarni boshqarishni murakkablashtirib, davlat idoralaridan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, kundalik harakat oqimini maqbullashtirish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish, shuningdek, ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida transport vositalari harakatini ma’muriy-huquqiy jihatdan cheklash mexanizmlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda.

Jahonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va transport vositalari harakatini ma’muriy-huquqiy tartibga solish bo‘yicha erishilayotgan natijalar mintaqalar kesimida nihoyatda notekis ekani kuzatiladi. Xususan, 2025-yilda Yevropa mintaqasida o‘lim holatlari 36 foizga, G‘arbiy Tinch okeani mintaqasida 15 foizga, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida 2 foizga kamaygan bo‘lsa, Afrika mintaqasida 17 foizga oshgan, Amerika qit’asida esa ko‘rsatkichlar o‘zgarishsiz qolgan. Bu jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasida ham o‘z ifodasini topib, avtomobillashtirish darajasining shiddat bilan o‘sishi, xalqaro tranzit qatnovlarining ortishi hamda yo‘l infratuzilmasiga tushayotgan yuklamalar harakat xavfsizligini ta’minlashda o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur vaziyat muayyan mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jamoat xavfsizligini ta’minlashda transport harakatini cheklashning ta’sirchan ma’muriy-huquqiy institutlarini xalqaro standartlar asosida tadqiq etishni hamda huquqni qo‘llash amaliyotini modernizatsiya qilish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ham avtotransport vositalari sonining keskin o‘sishi yo‘l infratuzilmasiga jiddiy yuklama tug‘dirib, harakat xavfsizligini kafolatlashda yangicha murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, so‘nggi 3 yillikda qayd etilgan 27 282 ta yo‘l-transport hodisasining (shundan 6 700 kishi halok bo‘lgan, 22 445 kishi jarohatlangan) tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur halokatlarning 54,2 foizi aynan obyektiv, ya’ni infratuzilmaviy omillar sababli kelib chiqqan[3]. Bu statistik dalil shundan dalolat beradiki, mavjud muammolarni faqatgina haydovchini jazolashga qaratilgan an’anaviy ma’muriy usullar bilan hal etib

[1] Road deaths fall by 21% globally but stronger action is needed to save lives // World Health Organization. — 2026. — 20 July.— Elektron manba: https://www.who.int/news/item/20-07-2026-road-deaths-fall-by-21--globally-but-stronger-action-is-needed-to-save-lives (murojaat vaqti: 03.08.2026)

[2] INRIX 2025 Global Traffic Scorecard // INRIX. — Elektron manba: https://inrix.com/scorecard / (murojaat vaqti: 03.08.2026).

[3] O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXX ma’lumotlari asosida berilmoqda

bo‘lmaydi. Aksincha, bu holat transport harakatini cheklash jarayonini to‘liq raqamlashtirish (xususan, Milliy navigatsiya tizimini joriy etish), transport oqimini vaqt va hudud kesimida intellektual boshqarish, ekologik hamda texnik nazoratni kuchaytirish, shuningdek, infratuzilmaviy kamchiliklar uchun yuridik mas’uliyatni belgilash orqali sohaning ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni taqozo etadi.

Aynan shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994), “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi (2016), “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi (2024), “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi (2026) qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2026-yil) va “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil) farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan strategik vazifalarni huquqiy jihatdan ta’minlashga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan IV. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishining 87-maqsadi (Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish) doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy jihatlariga oid umumiy yondashuvlar I. Ismailov, M.Z. Ziyodullayev, Dj.X. Yuldashev, A.A. Xudayberdiyev, A.K. Yangibayev, J.X. Parmonov, S.S. Sharipovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda bevosita transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy jihatlari mavzusida dissertatsiya tadqiqoti amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, mazkur mavzuga doir masalalarda, xususan N.U. Allayarov tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish” (2022-y., K.M. Rahimov tomonidan “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimining nazariy-huquqiy jihatlari” (2022), Sh.R. Rashidov tomonidan “Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari” (2026) mavzusida falsafa doktori darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoya qilingan.

Transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga doir faoliyatiga aloqador masalalar yuzasidan I.O. Vasyuxno,

S.M. Ziryanov, Y.N. Kalyujniy, V.I. Mayorov, M.A. Ageyev, V.V. Juravlev, A.Y. Sokolov kabi xorij olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan[1].

Biroq, respublikamizda transport vositalari harakatini cheklashning ma'muriy-huquqiy jihatlariga oid masalalar yagona monografik darajada tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va "Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusi (2022–2026) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtotransport vositalari harakatini cheklashning ma'muriy-huquqiy jihatlarini chuqur tadqiq etish orqali mamlakatimizda xavfsiz va qulay transport muhitini yaratishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Transport vositalari harakatini cheklash tushunchasi, maqsadi va prinsiplarini ilmiy jihatdan tadqiq etish asosida ushbu institutning mohiyatini ochib berish;

O'zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning huquqiy asoslarini tadqiq qilish orqali ularni zamon talablari darajasida rivojlantirish;

O'zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy taklif va tavsiflar ishlab chiqish;

avtotransport vositalari harakatini cheklash borasidagi huquqni qo'llash amaliyotining holati, samaradorligini tahlil qilish, hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

rivojlangan xorijiy davlatlarda transport vositalari harakatini cheklashga doir ilg'or xorij tajribasini tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan taklif hamda tavsiyalarni shakllantirish;

O'zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning ma'muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollarini belgilash hamda amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyektini avtotransport vositalari harakatini cheklashning ma'muriy-huquqiy jihatlari bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini avtotransport vositalari harakatini cheklash choralarini qo'llash borasidagi muammolar, ushbu sohani tartibga soluvchi qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

[1] Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

yo‘l-transport hodisalari sodir etilganda, yo‘llarda ta’mirlash ishlarini olib borilganda, shuningdek jamoat xavfsizligiga tahdid bo‘lganda, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuz berish xavfi tug‘ilganda, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishni hamda yo‘llarda transport vositalari harakatini cheklash yoki taqiqlashni qonunchilik hujjatlarida huquqiy mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun tayinlangan jarima oltmish kun ichida to‘lanmagan taqdirda, transport vositasini jarima solish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turilishi mumkinligi, shuningdek ushlangan zahoti jarima joyida to‘langan hollarda transport vositasiga nisbatan ushlab turish chorasi qo‘llanilmasligi lozimligi ilmiy jihatdan asoslangan;

maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklarida bevosita huquqbuzarlikni sodir etgan haydovchining shaxsiga aniqlik kiritish amaliyotini joriy etish hamda ushbu tizim orqali qayd etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan jarima ballarini qo‘llashning o‘ziga xos ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini qonunchilikda mustahkamlash zarurati isbotlangan;

yo‘l harakati qoidalari buzilganligi bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan faqat sudga emas, balki idoraviy bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) ham shikoyat berish institutini kengaytirish hamda jarima ballari hisoblanishi yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va uning huquqiy oqibatlarini belgilash orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini oshirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Transport vositalarining tig‘iz vaqtda harakatlanishiga doir vaqt va infratuzilmaviy cheklov qoidalarini hamda avtomobil yo‘llarini saqlash tartibini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimchalar (125^{12}, 125^{13} va 127^{1}-moddalari) kiritish bo‘yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish vositalarini umumiy qoidabuzarliklar soniga qarab emas, balki og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalari ko‘rsatkichlariga muvofiq hududlar hamda yo‘l toifalari kesimida proporsional taqsimlash zarurati asoslantirildi.

shahar ko‘cha-yo‘llarida qayrilib olish joylarini (ajratuvchi tasmalardagi uzilishlarni) chorrahalar va piyodalar svetofori o‘rnatilgan joylardan kamida 50 metr oldin tashkil etish majburiyatini belgilash orqali SHNQ 2.07.06-24 shaharsozlik normalari va qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlangan;

Yo‘llarda tirbandliklarning oldini olish hamda harakatni tartibga solish maqsadida, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va sertifikatga ega volontyor fuqarolarni moddiy rag‘batlantirish asosida jarayonga jalb etishning bosqichma-bosqich amaliy algoritmi ishlab chiqildi.

bir yil davomida 5 va undan ortiq qo‘pol qoidabuzarlik sodir etgan haydovchilar uchun keyingi yilgi majburiy sug‘urta tarifini avtomatik ravishda keskin oshiruvchi

“Ma’muriy-sug‘urta multiplikatori” tizimini amaliyotga tatbiq etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

fuqarolar tomonidan o‘z yashash hududida shaxsiy mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan maxsus nazorat uskunalari orqali aniqlangan qoidabuzarliklardan undirilgan jarima summasining 75 foizini 5 yil davomida kafolatli ravishda mazkur fuqarolarga yo‘naltirishning amaliy mexanizmi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo‘llash amaliyotining ilg‘or hamda ijobiy tajribalari, sohaga doir uch yillik (2023–2025-yillar) empirik va statistik ma’lumotlar tahlili, 300 nafar amaliyot xodimlari va 263 nafar fuqarolar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan bo‘lib, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilgan va yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar esa, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* undagi xulosa va tavsiyalardan transport vositalari harakatini ma’muriy tarzda cheklashning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy hamda metodologik qarashlarni yanada rivojlantirishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ulardan transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llanilishi va ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni hamda huquqiy amaliyotni takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yo‘l-transport hodisalari sodir etilganda, ta’mirlash ishlarini olib borilganda, jamoat xavfsizligiga tahdid bo‘lganda, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuz berish xavfi tug‘ilganda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazishni hamda yo‘llarda transport vositalari harakatini cheklash yoki taqiqlash haqidagi qoidani kiritish to‘g‘risidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-son Qonunining 23-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 16-iyundagi №3/dn-122-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi yo‘llarda transport vositalari harakatini xavfsiz va samarali tashkil etish, turli xil favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun tayinlangan jarima oltmish kun ichida to‘lanmagan taqdirda, transport vositasining jarima solish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turilishini, shuningdek ushlangan zahoti jarima joyida to‘langan hollarda transport vositasi ushlab turishni taqiqlashni huquqiy mustahkamlashga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-fevraldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy

javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1033-son Qonunining 3-moddasi 32-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 16-iyundagi №3/dn-122-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqbuzarlik sodir etib, jarima to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarning qayta huquqbuzarlik sodir etishini oldini olish va javobgarlikning muqarrarligi ta’minlanishiga, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqilishini takomillashtirishga xizmat qilgan;

haydovchilar tomonidan sodir etilgan yo‘l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballari nafaqat ma’muriy bayonnomalar asosida chiqarilgan qarorda nazarda tutilgan asosiy jazo bilan birga hisoblanishi, balki kodeksning 309^1-moddasiga asosan “Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo‘l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan hollarda jarima solish to‘g‘risidagi qaror” asosida hisoblanishi lozimligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-sonli qarorining 2-bob 5^1-bandini foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXXning 2026-yil 30-iyuldagi 24/12-12561-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi muntazam qoida buzuvchi xavfli haydovchilarni transport vositasini boshqarish huquqidan cheklashning raqamli mexanizmini yaratish orqali ehtimoliy yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

yo‘l harakati qoidalari buzilishi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan hollarda huquqbuzarlikni sodir etgan haydovchining shaxsiga aniqlik kiritish amaliyotini joriy etish hamda ushbu tizim orqali qayd etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan jarima ballarini qo‘llash mexanizmlarini belgilash haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-sonli qarorining 4-bandi va qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 5^2-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXXning 2026-yil 30-iyuldagi 24/12-12561-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ma’muriy javobgarlikning muqarrarligi tamoyillarini ta’minlashga, jarima ballari hamda ma’muriy cheklash choralari transport vositasi mulkdoriga emas, balki aynan qoidabuzar haydovchiga nisbatan qo‘llanilishining adolatli huquqiy mexanizmini yaratishga xizmat qilgan.

yo‘l harakati qoidalari buzilganligi bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan faqat sudga emas, balki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) ham shikoyat berilishi mumkinligi hamda jarima ballari hisoblanishi yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va huquqiy oqibatlarini belgilash haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bobini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXXning 2026 yil 30 iyuldagi 24/12-12561-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning

amaliyotga joriy etilishi fuqarolarning buzilgan huquqlarini ortiqcha byurokratik to‘siqlarsiz, tezkor (idoraviy) tartibda tiklash imkoniyatini yaratishga, shuningdek, ma’muriy majburlov choralarini qo‘llashda qonuniylik hamda adolat tamoyillari kafolatini keskin oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 1 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta (shundan 1 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 148 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Transport vositalari harakatini cheklashning nazariy va huquqiy asoslari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Transport vositalari harakatining cheklash tushunchasi, maqsadi, prinsiplari va huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Transport vositalari harakatini cheklash tushunchasi, maqsadi va prinsiplari tahlili”*ga bag‘ishlangan. Unda ma’muriy cheklash choralari, transport vositalari harakatini cheklashning tushunchasi, turlari, mohiyati, maqsadi, xususiyatlari va prinsiplari o‘rganilgan.

Muallif V.N. Buryakov, Y.S. German, A.V. Lyaxov, I.V. Shevchenko, V.I. Stepanyuk, D.O. Nikolayevskiy, I.O. Vasyuxno, K. Nazarov, A.M. Silnikov, O.O.Lebedeva, I.M. Masharov, P.I. Kononov, V.D. Rodionova, V.V. Yonash, A.N. Kokorev, L.L. Popov., V.D. Ardashkin kabi huquqshunos olimlarning fikrlarini qiyosiy tahlil qilgan holda, *ma’muriy cheklash choralari tushunchasi*, asosiy belgisi, ularni qo‘llash obyektlari, qo‘llovchi subyektlar doirasi va nazariy muammolarga oydinlik kiritgan.

Tadqiqot ishida Transport vositalari harakatini cheklash tarzidagi ma’muriy choralarni qo‘llashning asosiy maqsadi – yo‘l harakatini to‘g‘ri tartibga solish, sodir etilayotgan huquqbuzarlikni darhol to‘xtatish hamda uning oqibatida kelib chiqishi ehtimol tutilgan zararli oqibatlarning oldini olish ekanligi ta’kidlangan.

Tadqiqotchi H. Maurer, S. Valdhof, T.K. Satskeyevich, K.S. Korshunova, A.I. Staxov, A.V. Zubach, A.Y. Sokolov, V.V. Gavrenkov, M.A. Ageyev,

V.V. Juravlev, A.I. Kaplunov va M.Z. Ziyodullayevlarning fikrlarini o‘rganib, *Transport vositalari harakatini cheklash tushunchasining mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan.*

Dissertatsiyada transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llash obyektlarini ta’sniflashda A.N. Kokorev, L.L. Popov, D.S. Dubrovskiy, V.D. Ardashkin kabi olimlarning mazkur masaladagi fikrlari qiyosiy tahlil qilinib, *ularni ikkiga: 1) shaxsga yo‘naltirilgan obyektlar va 2) ashyoviy va vaziyatli (infratuzilmaviy) obyektlar sifatida tasniflangan.* Natijada, mazkur cheklash choralari aynan qanday vaziyatlarda va kimlarga nisbatan qo‘llanilishi haqida aniq fikrga kelingan.

Birinchi bobning *“O‘zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning huquqiy asoslari tadqiqi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ma’muriy cheklash choralarining huquqiy asoslari o‘rganilib, ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi mazkur paragrafni o‘rganishda I. Ismailov, M.Z. Ziyodullayev, F.N. Shukurov va S.S. Sharipovlarning fikrlarini o‘rgangan holda transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llashning huquqiy asoslarini tadqiq etishni uning yuridik kuchiga ko‘ra: 1) Konstitutsiya va xalqaro huquqiy hujjatlar 2) qonunlar; 3) Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari; 4) Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari ketma-ketligida o‘rganish mazkur choralarni qo‘llashning huquqiy asoslarini batafsil va tizimli ravishda tahlil qilish uchun sharoit yaratadi, degan fikrga kelgan.

Tadqiqot ishida vakolatli davlat organlarining transport vositalari harakatini cheklash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish hamda sohaning normativ-huquqiy basazini mustahkamlashda qonuniy maqsadning mavjudligi, qo‘llanilayotgan choraning yaroqliligi va mosligi, zarurat va qat’iy mutanosiblik (proporsionallik) talabidan iborat to‘rtta prinsipial mezonga qat’iy rioya etishi lozim degan fikrga kelingan.

Dissertant tadqiqot predmetining huquqiy asoslarini o‘rganishda normativ huquqiy hujjatlarni sharhlash, sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazish, qiyosiy-huquqiy va ilmiy tahlil qilish natijasida ularni qo‘llashda vujudga kelayotgan huquqiy kolliziya va bo‘shliqlarni bartaraf etish zaruratini asoslantirgan. Jumladan:

1) “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 46-moddasida yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganda ilgari qabul qilingan hujjatlar zid bo‘lgan normalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi yoki o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilishi lozimligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 2024-yilning 12-iyulidan buyon 71 marotaba o‘zgartirish kiritilganligi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son qarori va boshqa normativ hujjatlar qabul qilinganiga qaramasdan, Ichki ishlar vazirining 2011-yil 5-iyuldagi “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i hanuzgacha takomillashtirilmay, yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatlarga muvofiqlashtirilmagan.

2) 2018-yilda BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi Ichki transport qo‘mitasining “Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha global forumning 77-sessiyasi

hisoboti” (ECE/TRANS/WP.1/165, 2018-yil 3-oktabr)da sun’iy intellekt va avtonom transport vositalarini yo‘l harakatida joriy etish bo‘yicha xalqaro darajadagi ilk “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, mazkur hujjat Respublikamiz transport sohasiga oid qonunchiligiga implementatsiya qilinmagan

3) yo‘llarni ta’mirlash davridagi harakatlanish tartibi va qonunchilikda belgilangan ekologik cheklovlar, kabi tadbirlar hamda transport harakatini vaqtinchalik cheklashga oid boshqa talablarga rioya etmaslik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda tegishli javobgarlik choralari nazarda tutilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy–huquqiy va tashkiliy asoslari”** tahliliga bag‘ishlangan. Mazkur bobda O‘zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, ichki ishlar organlarining transport vositalari harakatini cheklash borasidagi huquqni qo‘llash amaliyotining holati, samaradorligi, muammolari, ularning yuzaga kelish sabablari va yechimlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda transport vositalari harakatini cheklash subyektlari tizimi va tashkiliy asoslari tadqiq etilgan.

Dissertant Y.M. Rashevskiy, V.F. Sayetgarayev, V.R. Topildiyev A.I. Nikolayev kabi olimlarning fikrlarini tahlil qilib, transport vositalari harakatini cheklashning tashkiliy-huquqiy mexanizmi tushunchasiga mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi huquqshunos olimlar G.V. Atamanchuk, D.N. Baxrax, Y.A. Tixomirov, P. Dunleavy, H. Margetts, S. Bastov hamda J. Tinklerlarning tadqiqot ishlarini o‘rgangan holda sohaning tashkiliy-huquqiy mexanizmini uchta yirik konseptual yo‘nalish doirasida (vakolatli subyektlar tizimi, harakatni cheklashni tashkil etish tartibi (idoralararo hamkorlik) va raqamli boshqaruv mexanizmlari) tahlil qilish maqsadga muvofiq degan fikrga kelgan..

Jumladan, transport vositalari harakatini ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash amaliyotida quyidagi kamchiliklar tadqiq etilgan:

birinchidan, garchi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari (jumladan, 2024-yildagi 166-son qarori bilan ekologik stikerlar tizimi va boshqa normativ hujjatlar bilan vazn-gabarit nazorati) joriy etilayotgan bo‘lsa-da, mazkur majburiy cheklovlarni buzganlik uchun javobgarlikni avtomatik qayd etish va jazoni muqarrar ijro etish mexanizmi hanuzgacha qonun darajasida mustahkamlanmagan.

ikkinchidan, respublikamizda harakatlanish yo‘nalishlarini rejalashtirish, yo‘llardagi cheklovlar, tirbandliklar va ta’mirlash ishlari haqida ma’lumot olish uchun milliy navigatsiya tizimi joriy etilmagan.

Sotsiologik so‘rov natijalarida ham respondentlarning ko‘pchiligi (79,9 foiz amaliyot xodimlari, 74,9 foiz fuqarolar) Respublikada tirbandliklarni kelib chiqishining asosiy sababi sifatida Yo‘l harakatini tartibga soluvchi milliy navigatsiya tizimi ishlab chiqilmagani va yo‘llarda harakat to‘g‘ri tashkil etilmaganini bildirgan;

uchinchidan, mahalliy hokimliklar yoki DYHXX tomonidan joriy etilgan operativ yo‘l yopilishlari yoki cheklovlar haqidagi ma’lumotlarning mavjud navigatsiya tizimlarida o‘z vaqtida aks ettirish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Dissertant yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, transport vositalari harakatiga nisbatan o‘rnatilgan ekologik cheklovlarga amal qilmaganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash zaruratini isbotlab bergan. So‘rovnomada respondentlarning 84,8 foizi mazkur fikrga qo‘shilishgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Ichki ishlar organlarining transport vositalari harakatini cheklash borasidagi huquqni qo‘llash amaliyotining holati, samaradorligi va muammolari”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda transport vositalari harakatini cheklashning samaradorligi, bugungi holati va muammolari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi K.M. Rahimov, T.S. Azimov, J.H. Parmonov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini o‘rganib, ichki ishlar organlarining transport vositalari harakatini cheklash borasidagi huquqni qo‘llash amaliyotining holati, samaradorligi va muammolarini 1) Transport vositalari harakatiga doir muammolarning paydo bo‘lishiga oid makro-muhit; 2) Davlat nazorati mexanizmi va ma’muriy amaliyot; 3) Oqibatlar, tahlil va yechimlar blokini o‘z ichiga olgan uchta mantiqiy yo‘nalish asosida tadqiq qilish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelgan. Jumladan,

birinchi yo‘nalish doirasida (makro-muhit) respublikadagi jami avtomobil yo‘llari va ularning toifalanishi, shuningdek, aholining avtomobillashuv darajasi o‘rganilib, yo‘l infratuzilmasiga tushayotgan yuklamaning ortish tendensiyasi tahlil qilingan.

ikkinchi yo‘nalishda yo‘llarda qoidabuzarliklarni aniqlovchi infratuzilmaning texnologik transformatsiyasi, yo‘l harakati qoidabuzarliklari dinamikasi hamda ularni aniqlash usullari ko‘rib chiqilib, transport vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ustidan davlat nazoratini o‘rnatish mexanizmlari tadqiq etilgan.

uchinchi yo‘nalishda transport sohasida yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar, yo‘l-transport hodisalari statistikasining umumiy dinamikasi, turlari hamda ishtirokchilarining demografik va kriminologik portreti, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablari yoritilib, YTHlarning yo‘l toifalari kesimidagi tahlili, maxsus moslamalar qamrovi va oqibatlarning mintaqaviy tahlili amalga oshirilgan. Mazkur tahlillar natijasida transport vositalari harakatini cheklash choralari joriy qilinishi lozim bo‘lgan hududlar, vaqt va oqibat kesimidagi quyidagi muammolar aniqlangan:

birinchidan, asosiy YTHlar soat 18:00-22:00 oralig‘ida, asosan 25-35 yoshli haydovchilik staji 3-10 yil bo‘lgan haydovchilar tomonidan sodir etilmoqda;

ikkinchidan, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan YTHlarning 45,8 foizi haydovchilarning aybi (subyektiv omillar) bilan sodir etilgan bo‘lsa, qolgan 54,2 foizi obyektiv sabablarga ko‘ra – piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun sharoit yaratilmaganligi, yo‘l va ko‘chalarning yoritilmaganligi, qarama-qarshi yo‘nalishlarni ajratuvchi to‘siqlar o‘rnatilmagani hamda muqobil harakat uchun veloyo‘laklar tashkil etilmaganligi oqibatida kelib chiqqan;

uchinchidan, yo‘l toifalari kesimidagi tahlillarga ko‘ra, YTHlarning eng katta qismi muttasil ravishda davlat ahamiyatidagi yo‘llar hissasiga to‘g‘ri kelib, jami hodisalarning 34,75 foizini (10 017 ta) tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich ushbu

yo‘llarning o‘tkazuvchanlik yuklamasi va harakat tezligi yuqoriligi sababli eng xavfli toifa ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, keyingi o‘rinlarni shahar va xo‘jalik yo‘llari – 25,84 foiz (7 467 ta), mahalliy yo‘llar 20,5 foiz (5 912 ta) hamda xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar 18,89 foiz (5463 ta) egallab, asosiy xavf manbai aynan davlat ahamiyatidagi hamda shahar va xo‘jalik yo‘llarida saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda;

to‘rtinchidan, maxsus moslamalar respublikada eng ko‘p Toshkent viloyati (1 481 ta) va Toshkent shahriga (846 ta) to‘g‘ri kelsa-da, eng ko‘p YTHlar ham aynan ushbu hududlarda qayd etilmoqda, biroq YTHlar nisbatan kamroq sodir bo‘layotgan Namangan, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida og‘ir oqibatli hodisalar ulushi respublikada eng yuqori ko‘rsatgichga egaligi tadqiq qilingan.

Uchinchi va to‘rtinchi muammolar tahlili natijasida, yo‘llarda harakat va tezlikni cheklashga qaratilgan maxsus moslamalarni birinchi navbatda aynan Namangan, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarining davlat ahamiyatidagi hamda shahar va xo‘jalik yo‘llarida o‘rnatish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan bo‘lib, unda transport vositalari harakatini cheklash sohasidagi ilg‘or xorij davlatlari tajribasining tahlili hamda ushbu sohani takomillashtirish yo‘nalishlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Rivojlangan xorijiy davlatlarda transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy mexanizmlari tahlili”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya va Singapur kabi davlatlarning ma’muriy qonunchiliklarida transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llashga oid qonunchilik normalaridagi huquqiy mexanizmlar o‘rganilgan va ularni milliy tizimga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, dissertant tomonidan quyidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy tizimga joriy etish zarurati ilmiy jihatdan isbotlangan:

Transport vositalarining shovqin darajasini xalqaro standartlar (72-85 dB) asosida qat’iy cheklash mexanizmini joriy qilish;

Transport vositalarining akustik (shovqin) texnik reglamentlariga rioya etmaslik uchun javobgarlikni belgilash (so‘rovnomada mazkur taklifni respondentlarning 67 foizi ma’qullagan);

Transport vositalarining tungi yoritish chiroqlarini to‘g‘ri sozlangani va ularni haydovchilarni ko‘zini qamashtirish darajasini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan Tungi shafaq” (shartli) nomli maqsadli reyd tadbirlarini tashkil etish (so‘rovnomada mazkur taklifni respondentlarning 73,4 foizi ma’qullagan);

DYHXX xodimlarini fara chirog‘ining ko‘zni oladigan darajada ko‘tarilishi standartini o‘lchash, avtomobil shovqin darajasini o‘lchash hamda avtomobildan ekostikeri qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, chiqayotgan tutun va zaharli gazlarni joyida o‘lchash bo‘yicha maxsus portativ moslamalar bilan ta’minlash (so‘rovnomada mazkur taklifni respondentlarning 83,7 foizi ma’qullagan);

Mazkur bobning *“O‘zbekistonda transport vositalari harakatini cheklashning ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari”* deb nomlangan

ikkinchi paragrafida avtotransport vositalari harakatini cheklashni takomillashtirish masalalari sohani huquqiy, tashkiliy-taktik, moddiy-texnik va kadrlar ta’minoti yo‘nalishlariga ajratilgan holda tadqiq etilgan. Binobarin, sotsiologik so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar faoliyatni takomillashtirish uni huquqiy ta’minlashga (26,2 foiz), tashkiliy-taktik ta’minlashga (24,9 foiz), moddiy-texnik ta’minlashga (24,9 foiz) va malakali kadrlar bilan ta’minlashga (26 foiz) bog‘liqligini qayd etishgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llash samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni joriy qilish:

Sun’iy intellektga asoslangan boshqaruvchisiz (avtonom) va avtopilot rejimida ishlaydigan transport vositalarining harakatini va ularni muayyan holatlarda cheklashning ma’muriy-huquqiy asoslarini oldindan ishlab chiqish (mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning 69,6 foizi maqullagan);

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2011-yil 5-iyuldagi 2240-son buyrug‘ini bekor qilish va uning o‘rniga yangi namunadagi “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilish (mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning 76,2 foizi maqullagan);

transport vositalari harakatiga doir ekologik va texnik cheklovlar buzilganligi uchun javobgarlik belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish maqsadga muvofiqdir (qonun loyihasi ishlab chiqilgan. mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning 84,8 foizi maqullagan);

Ikkinchidan, transport vositalari harakatini cheklashning tashkiliy-taktik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish:

tirbandliklar, yopiq va kirish cheklangan yo‘llar, mavsumiy cheklovlar hamda vaqtincha belgilangan tezlik kabi ma’lumotlarni real vaqt rejimida aks ettiruvchi Milliy navigatsiya tizimini yaratish (mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan amaliyot xodimlarining 79,6 foizi , fuqarolarning 74,9 foizi maqullagan);

maxsus foto va video qayd etish vositalarini qoidabuzarliklar soniga qarab emas, balki og‘ir oqibatli YTHlar soniga muvofiq hududlar hamda yo‘l toifalari kesimida taqsimlash (mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan amaliyot xodimlarining 89,9 foizi, fuqarolarning 83,3 foizi maqullagan);

Uchinchidan, transport vositalari harakatini cheklash choralarini qo‘llashning moddiy-texnik asoslarini mustahkamlashga doir quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish:

ma’muriy jarimalardan tushgan mablag‘ning 25 foizini maxsus foto va video qayd etish uskunalari tarmog‘ini kenrgaytirishga sarflash;

fuqarolarning yashash hududida shaxsiy mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan maxsus nazorat uskunalari orqali aniqlangan qoidabuzarliklardan undirilgan jarima summasining 75 foizini 5 yil davomida qaytarish tizimini joriy qilish (mazkur taklifni

so‘rovnomada qatnashgan amaliyot xodimlarining 89,9 foizi, fuqarolarning 89,4 foizi maqullagan);

fuqarolarni avtomobil yo‘llarini saqlash va infratuzilma qoidalari buzilishiga oid kamchiliklar yuzasidan “E-jarima” tizimi orqali xabardor qilganligi uchun, aybdorlardan undirilgan jarima summasining 50 foizi miqdorida rag‘batlantirish mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, transport vositalari harakatini cheklashning kadrlarga oid asoslarini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish:

Tig‘iz vaqtlarda tirbandliklarni kamaytirish uchun 1 oylik maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va sertifikatga ega volontyor fuqarolarni (soatbay va bartaraf etilgan tirbandlikka soatbay pul to‘lash orqali) chorrahalarni tartibga solishga jalb etish mexanizmini joriy etish (mazkur taklifni so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning 86,3 foizi maqullagan).

Dissertatsiyaning **xulosa** qismida asosiy ilmiy natijalar (xulosa, taklif va tavsiyalar) keltirilgan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar va vakolatli organlarning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar o‘rtasidagi ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan amaliy tavsiyalar shaklida bayon etildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Quyidagi tushunchalarning mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi:

ma’muriy cheklash choralari – bu davlat boshqaruvi sohasida vakolatli organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklarni to‘xtatish (cheklash) va ehtimoliy oqibatlarining oldini olish, shaxs va jamiyat manfaatlarini ushbu shaxsning o‘zidan va o‘zgadan himoya qilish, shuningdek aybdorlarni javobgarlikka tortishni ta’minlash maqsadida qo‘llanadigan majburiy ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan usullar majmui;

